

## BOSHLANG`ICH SINF TEXNOLOGIYA DARSLARINI TASHKIL ETILISHI

*JDPU talabasi: Jurayeva Shaxnoza Shuxrat qizi*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada boshlang`ich sinf o`quvchilarida texnologiya fanini o`qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish, o`quvchi yoshlarda texnik ijodkorlikni shakllantirish mavzusi yoritilgan.*

**Kalit so`zlar:** *Texnologiya, loyiha, kreativlik, ijodkorlik, texnik ijodkorlik, innovatsion pedagogic texnologiyalar.*

Bugungi kunda zamon shiddat bilan rivojlanib borar ekan, bo`lg`usi pedagoglardan yana ham yuksakroq marralarni ko`zlash, fan, texnika va texnologiyalar borasidagi yangiliklardan xabardor bo`lish talab etilmoqda. Qadim zamonlardan beri ulig` ajdodlarimiz yangilikka ishtiyoqmand bo`lib kelganlari va Sharqda renesans davrini boshlab bergenliklarini dunuo hamjamiyati tan olgan. Hususan ilm olishga, hunar o`rganishga, biror bir kasb egasi bo`lishga intilish bizning bobokalonlarimizda juda kuchli bo`lgan va bu o`z navbatida diyorimizda juda ko`p dunyo ilm-fani rivojida katta hissa qo`shtan allomalar yetishib chiqishiga sabab bo`lgan.

Bugungi kunda yurtimizda ta`lim sohasida amalga oshirilayotgan tub islohatlar yurtboshimiz Sh.Mirziyoyev aytganlaridek, mamlakatimiz kelajagi hisoblangan yoshlarning vatanimiz ravnaqi yo`lida har taraflama yetuk shaxs sifatida rivojlanishi, ularning raqobatbardosh kadrlar bo`lib yetishishi uchun xizmat qilib kelmoqda. XXI asr fan texnika shiddat bilan rivojlanayotgan davrda har bir sohaga xorijiy tajribalar, yangi loyihalar kirib kelayotgani mamlakatimiz rivoji va ta`lim sohasida o`zgarishlar sodir bo`lishiga olib kelmoqda. Ta`lim sohasida olib borilayotgan islohotlar xalqimizing boy madaniy merosi, tarixiy an`analarini to`liqligicha saqlab qolish, hunarmandchilikni keng targ`ib qilish maqsadida 2017- yil O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “Hunarmandchilikni va texnologiyalarni rivojlantirish to`g`risidagi” farmoni davlat ta`lim standartlariga to`laligicha mos kelgan holatda uning sifatini oshirish uchun xizmat qilib kelmoqda.

Texnologiya ta`limiva tarbiyasi uning ahamiyati to`g`risida qomusiy mutafakkirlarimiz Ibn Sino, Farobi, Naqshbandiy, Kaykovus, A.Navoiy, Termiziy kabi allomalarimiz o`z asarlarida mehnat tarbiyasini ulug`lab, yoshlarni mehnat qilishga, mehnatning inson faoliyatida o`rni haqida fikr bildirishgan.

Respublikamizda Texnologik ta`limi uning taraqqiyotiga ko`pgina olimlar A.Varobyev, N.Shodiyev, E.Choriyev, N.Nishonaliyev, O.M.Ma`zumov,



R.Mavlonova, O.Magdiyev, K.Davlatov, O`Tolipovlarning darslik va metodik qo'llanmalari chop etilgan. Texnologiya ta'limi fanining boshlang`ich sinflariga fan sifatida o'qitilishi 1932 yildan amalga oshirildi. olimlar o'ttasida texnologiya ta'limining fan sifatida o'tilishi ancha tortushuvlarga sabab bo'ldi. Birinchi toifali olimlar texnologiya ta'limi barcha fanlarga qo'shib o'tilishi maqsadga muvofiq degan fikrlarni olg'a surdilar.

1952 yil texnologiya (mehnat) ta'limiga jamoatchilik e'tibori qaratildi. Maktablarda texnologiya (mehnat) ta'limi va mehnat tarbiyasini zarurligi o'quvchilarni ishlab chiqarish bilan aloqasi bo'lishi kerakligi ko'rsatib o'tildi.

1954 yilda texnologiya (mehnat) ta'limini o'rta maktab o'quv rejasiga o'sib kelayotgan yosh avlodni kamol toptirish vositalaridan biri sifatida kiritildi.

Amalga oshirilayotgan islohotlar natijasi sifatida barcha o'quv predmetlari, jumladan texnologiya (mehnat) ta'limini o'qitish mazmuni ham mukammallahib bormoqda. Ushbu o'quv fanining maqsadi o'quvchilarni aqliy va jismoniy mehnat turlari va jarayonlari hamda kasblar bilan dastlabki tanishtirish, kasb tanlashga tayyorlash, o'quvchilar mehnatni qadrlashni, uning jamiyatdagi o'rnini bilishni, mehnatga qiziqish va mehnatsevarlikni shakllantirish orqali kasbgacha tayyorgarliklarini amalga oshirishdan iborat.

Ta'lim mazmunining zaruriy o'zagi hisoblanmish ta'lim standarti mamlakat xududidagi turli o'quv muassasalarida ta'limning barqaror darajasini ta'minlash sharti amalga oshiriladi, o'quv yuklamalari me'yoriga keltiriladi, o'quvchilar bilimini baholash mezonlari ishlab chiqiladi.

O'qivchi ta'lim standarti bilan cheklanishi mumkin yoki bilimlarni chuqurroq egallash maqsadida mustaqil ravishda kengroq, chuqurlashtirilgan bilim olishga va yuqori reyting bali to'plash huquqiga ega. Natijada, qiyin yoki o'quvchi xush ko'rmaydigan predmetni o'rganishda unda standartda belgilangan me'yor bilan cheklanishga imkon beriladi. Bunda o'quvchi o'zining qiziqishi, layoqati, qobiliyatini ro'yobga chiqarish, o'zi uchun eng maqbul yo'lni ongli va mustaqil tanlash imkoniga ega bo'ladi.

Hozirgi kunda texnologiya (mehnat) ta'limi o'zining ilmiy, nazariy va amaliy, moddiy-texnik, ijtimoiy pedagogik muammolarini hal etishda, uning an'anaviy mazmunini isloh qilishda qator nomutanosibliklar va ziddiyatli holatlar sodir bo'lmoqda:

- yangi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va mafkuraviy tuzimda ro'y berayotgan tub o'zgarishlar bilan mehnat ta'limining ilmiy-uslubiy, pedagogik va moddiy-texnik jihatdan istiqbol talablari darajasida ma'muriy ta'minlanishining nomutanosibligi



hamda Respublikada ta'lif jarayonining moddiy-texnik ta'minotini ishlab chiqaruvchi maxsus korxonalarining yetishmasligi;

-texnologiya (mehnat) ta'limini amalga oshirishning asosiy qismi bo'lgan umumta'lif bo'g'ini bilan uzlusiz ta'lifning boshqa bo'g'lnlari-maktabgacha tarbiya, o'rta maxsus va oliy ta'lif hamda keyingi bosqichlari o'rtasida uzviylikning ta'minlanmaganligi; mehnat ta'limining hozirgi kundagi an'anaviy mazmuni, maqsadi, shakli, vositalari va uslublarida respublikamizning milliy, etnik, xududiy, tarixiy xususiyatlari va sharqona tafakkur mezonlarining aks etmaganligi;

- texnologiya (mehnat) ta'limining o'ziga xos bo'lgan xususiyatlarini hisobga olib, uni amalga oshirish mexanizmlarining pedagogik, psixologik, fiziologik va didaktik asoslarining ishlab chiqilmaganligida ko'rishimiz mumkin. Boshlangich sinflarida o'qitiladigan texnologiya (mehnat) ta'limi fanining maqsadi-o'quvchilarni aqliy va jismoniy mehnat turlari, kasblar bilan dastlabki tanishtirish, kasb tanlashga tayyorlash, mehnatni qadrlash, mehnatga qiziqish hamda mehnatsevarlikni shakllantirish orqali ularning kasbgacha tayyorgarligini 5-sinf uchun uzviy bog'lanish zaminini tayyorlashdan iborat. Bular ta'lifiy-tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlar hisoblanadi. Ularda davlat ta'lif standartlariga asoslangan yo'nalishlar mavjud bo'lib, quydagicha ifodalanadi.

(Bular ta'lifiy-tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlar hisoblanadi)

Ta'lifning maqsadi-o'quvchilarning barkamol shaxs bo'lib shakllanishlari uchun ularga mehnat jarayonlari, kasblar asoslarini (texnologiyasini) o'rgatish, ularni kasb tanlash bilan uyg'unlashtirish orqali ularning kasbgacha tayyorgarligiga zamin tayyorlashdan iborat.

Tarbiyaviy maqsad-o'quvchilarning mehnat ko'nikmalarini egallashlari jarayonida mehnat va kasbga munosabatlарини yuqori axloqiy sifatlarini, mehnatsevarlik, insonparvarlik va tadbirkorlikni shakllantirishdan iborat.

Rivojlantiruvchi maqsad mehnat va ta'lif mashg'ulotlari jarayonida o'quvchilarga aqliy, jismoniy, axloqiy, badiiy-estetik tarbiya va ta'lif berish orqali ularning barkamol shaxslar bo'lib yetishishlariiga yordam berishdan iborat.

Nazorat maqsadi-o'quvchilarning dasturda belgilangan bilim ko'nik-malarini Davlat ta'lif standartlariga binoan o'zlashtirish xolatini dastlabki oraliq va yakuniy nazorat qilishdan iborat

Mexnat topshiriklarini bajarishda ukuvchi kursatma kullanmalar uyinchoklar modellar tabiiy materiallardan bumlar yasaydilar

XULOSA. Texnologiya fani bizga talim tizimining yangi sohalariga qadam qoyishga bo'lgan imkoniyatlar eshigini ochadi. Bunga yana yaqqol misol tariqasida mehnat talimi fani texnologiya faniga o'zgartirilganligidir. Buning asosiy sababi



mehnat so`zi keng ma`no va tushunchaga ega bo`lib hozirgi texnika va texnologiyalar rivojlangan zamonamizga to`g`ri kelmaydi. Texnologiya ta`limi jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish orqali innovatsion infratuzilmasini shakllantirish lozim. Lekin bu sohada yuqori darajaga erishish uchun eng avvalo moddiy-texnik baza zamon talablariga javob berishi lozim. Bu kamchiliklarni bartaraf etish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim:

-umumiyl o`rta ta`lim maktablarida o`qitiladigan amaldagi texnologiya fani mazmuni, mustaqil hayotda qo`llash imkoniyati bo`lgan texnologik savodxonlikni, tanqidiy fikrlash va ijodkorlik kompetensiyalarini shakllantirish uchun yetarli emas;

-texnologiya fanini o`qitishda metapredmet kompetensiyalar va fanlararo bog`liqlikning kamligi;

-texnologiya fani me`yoriy hujjatlarida baholash mezonlarining faqat bitiruvchi kompetensiyasi uchun ishlanganligi va darslik, ishchi daftari va o`qituvchi kitoblari, multimedia ilovalari, didaktik materiallarning yetishmasligi;

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7-fevraldagagi PF-4947-sonli «O`zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo`yicha Harakatlar strategiyasi to`g`risida»gi Farmoni. O`zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to`plami, 2017 yil, 6-son, 70-modda.

2. Maxbuba Aslanovna Xalmuxamedova «NAQShBANDIYa TARIQATIDA KASB-HUNAR EGALLASHGA DA`VAT.» Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal

3.Texnologiya ta`limini rivojlantirish strategiyalari moduli bo`yicha O`QUVUSLUBIY MAJMUA. Toshkent-2021

4. A. Abduqodirov, R. Ishmuhammedov. “Ta”limda innovatsion texnologiyalar” T.: 2008. – 128 b.

